



UNIVERSAL XALQARO ILMIY JURNAL

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljournal.uz>

Universal International Scientific
Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://universaljournal.uz)

Year: 2025 Issue: 2 Volume: 1

Published: 15.01.2025
<https://universaljournal.uz>



International indexes

GOOGLE SCHOLAR
CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF

BOBOJON TARROH XODIM HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Xayrullayeva Dinora Lutfulla qizi

ToshDO‘TAU 1-bosqich magistranti

Uzbekistan

dinoraxayrullayeva082@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Bobojon Tarroh Xodimning hayoti va ijodi, uning XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhitida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Bobojon Tarroh Xodim, Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyida xattotlik va shoirlik sohalarida faoliyat ko‘rsatgan. Maqolada Xodimning ijodiy, xattotlik bilan bog‘liq faoliyati, o‘zining ilmiy va adabiy merosi haqida ham so‘z boradi. Shuningdek, uning devonlaridagi qimmatli yozma manbalarni tahlil qilish orqali adabiyotshunoslikda yangi istiqbollarni ochish mumkinligi ko‘rsatiladi. Maqola Bobojon Tarroh Xodimning asarlari va uning adabiyotga qo‘shgan hissasini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: adabiy muhit, adabiy maktab, ijodiy jarayon, xattot, shoir, devon, qo‘lyozma, tazkira.

Аннотация: В статье говорится о жизни и творчестве Бободжона Тарроха Хадима, его месте в литературной среде Хорезма конца XIX - начала XX века. Дедушка Тарро Хадим работал в области каллиграфии и поэзии во дворце хана Мухаммада Рахимхана II в Хиве. Также в статье говорится о творческой, связанной с каллиграфией деятельности Хадима, его научном и литературном наследии. Показано также, что анализируя ценные письменные источники на его

Bayoniyning “Shajarai xorazmshohiy” , Hasanmurod Laffasiyning “Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimai hollari” , Bobojon Tarrohning “Xorazm shoir va navozandalari” , Komil Xorazmiyning “Latoyifu-z-zaroyif”, Ahmad Tabibiyning “Majmua-t ush-shuaro(yi Feruzshohiy)” va “Muxammasoti majma’ ash-shuaro(yi Feruzshohiy)” , Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asarlarida qimmatli ma’lumotlar berilgan.

Bundan tashqari, G.Ismoilova, N.Jumaxo‘jayev, S.Matkarimova, N.Shodmonovning “Shohidu-l-iqbol” – adabiy manba monografiyasida, A.Erkinov, N.Polvonov va H.Aminov nashr ettirgan “Muhammad Rahimxon II – Feruz kutubxonasi fehrisi” da qator ma’lumotlar keltirilgan. Xodim haqida yana Po‘latjon Domulla Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiy” tazkirasida Xodimiy degan shoir haqida qisqacha ma’lumotlar bor. Lekin biz aynan Bobojon Tarroh – Xodim ekanligiga to‘la aniqlik kiritish lozim, deb o‘ylaymiz.

Bobojon Tarroh Xodim 1878-yilda Xivada tavallud topgan. U asosan xattotlik bilan shug‘ullangan. Lekin she‘r ilmidan ham xabardor bo‘lib, o‘zi she‘rlar yozib turgan. Uning she‘riyatga qiziqishida oilaviy muhitning ta’siri katta bo‘lgan. Chunonchi, Xodimning bobosi – Abduqodir Devon o‘z davrida taniqli shoirlardan bo‘lib, “Qone” taxallusi bilan ijod qilgan. Abduqodir Devon haqida Hasanmurod Laffasiy “Tazkirat ush-shuaro” asarida ma’lumotlar keltirib o‘tadi.

Abduqodir Devonning otasi, Bobojon Tarrohning katta bobosi, Muhammad Nazir Devon ham shoir bo‘lib, “Munshiy” taxallusi bilan ijod qilgan. Otasi Abdulaziz Abduqodir o‘g‘li “Xodim” taxallusida she‘rlar yozgan. Keyinchalik shoir otasining taxallusini o‘ziga oladi va shu nom bilan ijod qiladi. Bundan ko‘rinadiki, shoirdagi iste’dod tug‘ma bo‘lgan. Bundan tashqari ijtimoiy muhit ham uning shoir bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bobojon Tarroh otasidan erta ajraladi va boquvchisiz qolgan oila qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazadi. Yosh Bobojonni tog‘asi Masharif Tarroh o‘z tarbiyasiga olib, uni o‘qitadi. Dastlab eski maktabda, keyin madrasada ta’lim oladi. Yigirma bir yoshidan she‘rlar mashq qilib yoza boshlaydi. Yusuf Hoji Oxun Doiy unga ustozlik qilgan. U “Xorazm navozandalari” kitobida shunday yozadi: “Shoir bo‘lmasak, qamchi yeyishimizda qo‘rqib, Yusuf Hoji Oxunning oldiga yig‘lab bordim. U menga bir ziyofat buyurdi. Ziyofatga Ojizni, Obid Olimni chaqir, shu o‘tirishda seni shoir qilamiz, dedi. Sevinib ziyofat tayyorladim. Doiy oqshom qolib menga she‘r yozish tartibini o‘rgatdi. Men kechasi bilan yotib yozdim. Azon choy vaqtida Doiy qani yozganlaringni olib kel-chi, dedi. Men bitganlarimni keltirib uning qo‘liga berdim. U o‘qib isloh qilib berdi. Shoirlilik bilan shug‘ullanishimga shu sabab bo‘ldi”.

Qo‘lyozma muallifning vafotidan so‘ng Xalilullo Siddiqovda saqlanadi. Keyinchalik do‘sti Rahim Nazariyning

o'g'li Davlatyor Rahimning adabiyotga qiziqishidan xabar topgan Xalilullo Siddiqov qo'lyozmani unga topshiradi.

Chunonchi, Bobojon Tarroh shoirlar nazoratchisi sifatida ularning fe'l-atvori haqida yaqindan bilgan va buni asarda batafsil bayon qilishga harakat qilgan. Mazkur jarayondagi ba'zi jihatlar, xususan shoirlarning ijodiy merosidan namunalar keltirilmasligi, siyosiy repressiyalar va adabiyotga bo'lgan mustamlaka yondoshuvining ta'siri bilan bog'liq.

Asarda aytilishicha, Xodimning akasi Muhammad Sharif devon xonning buyrug'i bilan kaltaklanib o'ldiriladi. Uning o'limidan so'ng xon Xodimni akasining o'rniga mirzolik vazifasini bajarishi uchun chaqirtirib oladi. Saroydagi amaldorlarga Feruz she'r ilmini o'rganib, shoirlik qilish talabini qo'yadi. Shu sababdan, saroydagi muhit ta'sirida Bobojon Tarroh ham shoirlik bilan shug'ullana boshlaydi.

Bobojon Tarroh asosan xattotlik bilan mashg'ul bo'lgan. Xodim tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Asarida ular haqida aniq ma'lumotlarni qoldiradi:

I. 1231 - qo'lyozma

II. 204 - qo'lyozma

III. 3460 - qo'lyozma

IV. 911 - qo'lyozma

V. 1192 - qo'lyozma

VI. 1119 - qo'lyozma (Feruz devoni)

Yuqoridagi devonlar mening aytg'onlarim emas, balki shoirlarning g'azallarini o'z qo'lim bilan ko'chirg'onim

devonlardir. O'zim aytg'on devonlarning raqamlari tubanda ko'rsatiladi:

I. 906-raqamli devon.

II. 901-raqamli devon.

III. 1142-raqamli devon.

Bularning barchasi Toshkentda Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda".

Asarda, shuningdek, Bobojon Tarroh Xodimning shaxsiy tajribalari ham bayon qilinadi. Uning she'riyatga bo'lgan qiziqishi, shaxsiy hayotida yuz bergan noxush voqealar va shoirlik faoliyati haqida keltirilgan ma'lumotlar adabiyotshunoslikda yangi istiqbollari ochadi. Xodimning yozuvchilarga, shoirlarga bo'lgan munosabati va ularga nisbatan chuqur hurmati, uning asarini o'ziga xos adabiy-tarixiy hujjatga aylantiradi. Undagi ma'lumotlar adabiyotshunoslik fanida muhim ahamiyatga ega. Chunki bu qo'lyozma devonlar asosida hali tadqiq etilmagan manbalar va mavzularni o'rganib, adabiyotimiz xazinasini yangidan yangi ma'lumotlar bilan boyitishimiz mumkin. Shu bilan birga, asardagi qo'lyozmalar va devonlar, adabiyotshunoslikda yangi tadqiqot mavzularini ochib berishi mumkin.

Bobojon Tarroh Xodimning "Xorazm navozandalari" asarini XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Xorazm adabiy muhiti va adabiyotshunoslik jarayonlari haqida to'liq va aniq tasavvur hosil qilishda muhim ahamiyatga ega manba sifatida qimmatlidir. Xodim bu asari orqali Xorazmning adabiy muhitida yashagan

shoirlar haqida batafsil ma'lumot beradi va ular haqidagi tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstni o'rgatadi. Asar, nafaqat o'sha davrning shoirlari va adabiy jarayonlariga oid muhim faktlarni, balki tazkiranavislik an'analarning shakllanishini va uning adabiyotshunoslikdagi rolini yoritadi. Bobojon Tarroh Xodimning o'ziga xos yondashuvi, shoirlarning ijodiy faoliyatlarini yoritishdagi ehtiyotkorlik uning asaridagi ilmiy va adabiy ahamiyatni oshiradi.

Uning o'z zamonasida yaratgan adabiy asarlari va "Xorazm navozandalari" tazkisasi adabiyotshunoslik sohasida yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xodimning shaxsiy hayoti va ijodiy faoliyati, shuningdek, Xorazmda she'riyat va xattotlikning rivojlanishiga qo'shgan hissasi adabiyotshunoslikda yangi istiqbollarni ochadi. Shu bilan birga, uning devonlari va unga mansub bo'lgan xattotlik merosi, o'z davrining madaniy va siyosiy vaziyatlarini aks ettirib, ilmiy tahlil qilishda katta ahamiyatga ega.

XULOSA

Bobojon Tarroh Xodimning hayoti va ijodi, Xorazm adabiy muhiti va uning ilmiy faoliyati o'zining boy tarixi va murakkab ijtimoiy kontekstiga ega. Kichik tadqiqotimizda uning Xiva xoni Muhammad Rahimxon II saroyida faoliyat yuritgan davri, she'riyat va xattotlik sohasidagi yutuqlari, shuningdek, Xodimning o'ziga xos shaxsiy tajribalari va adabiyotga bo'lgan munosabati tahlil qilindi. Xodimning adabiy merosi, xususan, uning yozgan devonlari va shoirlar haqidagi eslatmalari, Xorazmning adabiy muhitini va o'sha davrning madaniy-ijtimoiy holatini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

Umuman olganda, Bobojon Tarroh Xodimning adabiyotga qo'shgan hissasi, uning ijodi va hayoti, Xorazm adabiyotshunosligini yanada boyitishga xizmat qilgan va kelajakdagi tadqiqotlarga yangi yo'nalishlar ochish imkonini yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Valixojayev B. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. X-XIX asrlar. – T.: O'zbekiston, 1993. – 118. b.
2. Азизов Бобожон Тарроҳ -Ходим. Хоразм навозандалари: XIX аср охири – XX аср бошларида Сайид Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар хақида эсдаликлар, – Т.: Адабиёт ва санъат, 1994. – 96. б.
3. Баёний, Муҳаммад Юсуф. Шажараи хоразмшоҳий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. № 9596.
4. Қайюмов, Пўлотжон Домулло. Тазкираи Қайюмий. III жилдлик. III жилд. – Т.: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти, 1998. – 538. б.
5. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. № 12561.
6. ЎзР ФА ШИ фонди, инв. № 1152, 5018 (қўлёзма), 11238 (тошбосма).
7. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. № 1134.

8. <https://n.ziyouz.com/books> Bobojon Tarroh. Adabiy esdaliklar//Xorazm navozandalari.
9. <https://uz.m.wikipedia> Xodim (Bobojon Tarroh).
10. <https://www.academia.edu> Umarova S. Xorazm adabiy muhitida devonchilik an'anasi.